

SHAYX MUHAMMAD ABU ZAHRA SHAXSIYATI

*Isakdjanov Ramzjon Raximjanovich**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
dotsenti, fal.f.Phd**e-mail: isakdjanov@mail.ru**tel: 90 322 91 74**Pardayev Abdurahim Chori o'g'li**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
stajyor-tadqiqotchisi**e-mail: choriyevich94@mail.ru**tel: 97 140 06 00*

Muhammad Abu Zahra (h.1316-1394/m.1898-1974) 1898 yil 29 mart sanasida Misrning ilm-fan, iqtisod, savdo va sanoat markazlaridan biri hisoblangan “Mahallatul-Kubro” shahrida, islomiy qadriyatlarga sodiq bo‘lgan va hurmatga sazovor oila bo‘lgan Abu Zahra oilasida tug‘ilgan. U o‘z davrining elita ilmiy madrasalarida ta’lim olgan va o‘tkir aql-zakovati, kuchli mulohazalari va izchil fikrlari bilan do‘satlari orasida ajralib turgan.¹

Hayoti davomida Qur’on va tafsir ilmlariga oid asarlar, notiqlik san’antiga oid asarlar, fiqh, usulul fiqh, mantiqqa oid asarlar, fuqaho va mujtahidlar hayotiga oid biografik asarlar, siyosat va oila tartibi, asosiy inson huquqlari va erkinliklaridan tortib dinshunoslikka oid asarlar va diniy ilm sohalariga oid saksonga yaqin juda foydali asarlar yozgan.

Abu Zahra ilmli shaxs bo‘lishi bilan bir qatorda taqvoli, qanoatli, go‘zal axloqli, mutaassiblikdan yiroq, aqidada ahli sunnat, fiqhda esa hanafiy mazhabida bo‘lgan.² Har doim millat va mamlakat manfaatlarini barcha manfaatlardan ustun qo‘ygan. Hatto davlat arboblariga ham Qur’on va Sunnatga zid amallarda ochiqdan-ochiq qarshilik ko‘rsatgan.³

Muhammad Abu Zahranning bolaligidan umrining oxirigacha uning ilmiy hayoti va faoliyati quyidagicha rivojlandi: Dindor sifatida tanilgan otasi Ahmad Abu Zahra va onasi Hadirexonim tomonidan Qur’on yod olish uchun yuborilgan va 9 yoshida

¹ Abdü'l-Müüz Abdülhamid el-Cezzar, “Min a'lâmi'l-Ezher: Muhammed Ebû Zehre”, Mecelletü'l-Ezher, Kahire 1984, c. LVI, sayı. 8, s.1266-1273; Ahmed Fuat Paşa, Mevsûatü a'lâmi'l-fikri'l-İslâmî: Muhammed Ebû Zehre, Kahire 1984, s. 901; Hayreddin Zirikli, el-A'lâm: Kâmûsu terâcîm, Dâru'l-Îlm li'l-Melayin , Beyrut 1996, VI, 25-26.

² Muhammed Osman Şübeyr, Muhammed Ebû Zehre, Îmâmü'l-fukahâ'i'l-muâsîrîn ve'l-müdâfiu'l-cerîu an-hakâiki'd-dîn, Dâru'l-Kalem,Dimeşk 2006, s. 56-80; Saffet Köse, “Muhammed Ebû Zehre”, DIA,TDV, İstanbul 2005, XXX, 480-481.

³ Ebû Zehre, La Conception de la guerre dans l'Islam (Son Barış Çağrısı), Cemal Aydin (çev.), Şüle Yayınları, İstanbul 1998, s. 1

yodlashni yakunlagan. Maktabda o‘qish va yozishni o‘rgangan⁴. U Islom ilmlari bilan bir qatorda aniq fanlarni ham o‘rgandi (matematika, geografiya).

1913-yilda Mirsning mashhur shaharlaridan biri bo‘lgan Tantaga boradi va “ikkinchi Azhar” nomini olgan Al-Ahmadiyya universitetiga o‘qishga kiradi. Abu Zahra u erdagи uch yillik o‘qish davomida ajoyib yutuqlar va yuqori natijalarga erishadi. Bu bilimlarni o‘ziga yetarli deb, hisoblamay 1916-yilda, shariat sudlari uchun qozilar, kotiblar, advokatlar va muftiyalar tayyorlaydigan “Qozilar madrasasi”ga o‘qishga kiradi. To‘qqiz yil o‘qigan ushbu madrasani 1925 yilda “Doktor” unvoni bilan tamomlaydi.

1925 yilda inson huquqlarini himoya qilish va ularga yordam berish maqsadida bir yil davomida stajyor advokat (huquqshunos) bo‘lib ishlaydi. Bu stajyorlik uning shar’iy ilmlarga bo‘lgan munosabati va bu ilmlarni sharhlashdagi uslubini shakllantirdi.⁵ Bir yillik huquqshunoslik amaliyotidan so‘ng tayyorgarlik bosqichida arab tili va fiqh fanlaridan dars bera boshlaydi, tafsir saboqlarini beradi. Qozilar madrasasiga o‘qituvchi etib tayinlanadi va bu vazifani uch yil bajaradi.

Shundan keyin Abu Zahra uchun o‘qituvchilik hayoti boshlanadi. 1933-yildan al-Azhar universitetiga qarashli “Usulid-Din” kulliyasining maorif, ritorika, din va mazhablar bo‘limida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Mualliflik hayotini ham bu yerda o‘qitgan saboqlari haqida yozgan asarlari bilan boshlagan. Uning “Notiqlik”, “Tarihu'l-adil”, “Tarihu'd-diyonati” kabi asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilingan. “Diyonat-ul-qodimiyy”, “Muhadarat fi'n-Nasroniyya” asarlарини ham shu davrda yozishni boshlagan.

1934-yil 2-noyabrda o‘sha paytda I.Fuad universiteti deb atalgan Qohira universitetining huquq fakultetiga notiqlik o‘qituvchisi, oradan bir yil o‘tib esa islom huquqi fani o‘qituvchisi lavozimiga tayinlangan. Keyinchalik Islom huquqi kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan.

1934-1942 yillarda Usulid-din fakultetida mehmon ma’ruzachi sifatida ma’ruzalarini davom ettirgan. Abu Zahra Islom tadqiqotlari jamiyati a’zosi edi. 1952-yilda Islom tadqiqotlari institutining tashkil etilishida katta hissa qo‘sghan va bu institutda dars berishdan tashqari islom huquqi kafedrasi mudiri vazifalarini ham o‘z zimmasiga olgan. Hanafiy va Shofe’iy mazhablari bo‘yicha kodifikatsiya komissiyasi rahbari bo‘lgan. Abu Zahra 1963-1964 yillarda al-Azhar universitetining Biznes boshqaruvi fakultetida islom huquqi fanidan dars bergen.⁶

⁴ Nasır Mahmud Vehdan, Ebû Zehre: Âlimen İslâmiyyen, hayatuhû ve menhecuhû fi buhûsihî ve kütübihî, Şirketi’n-Nas li’t-Tibaâ, Kahire 1996, s. 11, 34

⁵ Ebû Bekir Abdürrezzâk, Ebû Zehre: İmâmu asrihî, hayatı ve eseruhû'l-ilmiyyü, Dâru'l-İ'tisâm, Kahire 1985, s. 25-30.

⁶ Enver el-Cündî, “Muhammed Ebû Zehre”, A'lâmü'l-karni'r-rabia aşere el-hicri: A'lâmü'd-da'veti ve'l-fikr, Mektebetü'l-Encelü'l-Misriyye, Kahire 1981, s. 35-49; Saffet Köse, “Muhammed Ebû Zehre: Hayatı, İslâm Hukuku ve Diğer Disiplinlerle İlgili Bazı Görüşleri”, İslâm Hukuku Araştırmaları Dergisi, 2005, s. 479-496.

Abu Zahra o‘zining beqiyos sa'y-harakatlari, fidoyiligi, jasorati bilan, bergen saboqlari va yozgan asarlari bilan umrini islomga va musulmonlarga xizmat qilishga bag‘ishlagan. 1973 yilning oxirida Iskandariya universitetida va Qohira universitetlarida Musulmon yoshlar jamiyatni bilan birgalikda islomga hujum qilganlarga qarshi kurash uchun ko‘plab konferensiya va yig‘ilishlar uyushtirgan. Bundan tashqari Ijtimoiy ishlar vazirligining “Oila qonuni” loyihasi doirasi ajralish, ko‘pxotinlilikni cheklash va oila qurish bo‘yicha al-Azhar va Islomshunoslik akademiyasida ma’ruzalar o‘qigan.

1974-yiling aprelida u izlanishlari doirasida diniy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, yangi huquqiy muammolarni hal qilish uchun "Islomning zamonaviy muammolari" deb nomlangan milliy konferensiya o‘tkazishga qaror qilgan va konferensiyaga raislik qilish vazifasi bir ovozdan Abu Zahraga topshirilgan.⁷

U yig‘ilish joyida izlanishlari doirasida so‘ngi ma’ruzalarini qilgandi. Chunki, konferensiyadan so‘ng uyiga qaytib, uyining yuqori qavatidagi kutubxonaga chiqadi. Maqsadi, o‘zi boshlagan Naml surasining tafsirini davom ettirish bo‘lgan. Biroq oradan biroz vaqt o‘tib, bir qo‘lida tafsir qog‘ozlari va birida qaxva finjoni bilan zinadan pastga tushayotganda yiqilgan va tafsir qog‘ozlari ustiga sajda holatida turib qolgan .

Bu yiqilish tufayli boshidan yaralangan va juma namozidan o‘sha kun oqshomiga qadar hushidan ketishda davom etgan Abu Zahra 1974-yil 12-aprel kuni 77 yoshida vafot etgan. Vafotining ikkinchi kuni 1974 yil 13 aprel shanba kuni al-Azhar universiteti qabristonida dafn qilingan.

Muhammad Abu Zahra ilmni, odob-axloqini, fazilatini o‘sha davrning yetuk ustozlaridan olgan. Ustozlari tufayli yuksak axloq, hikmatli diniy ilm, fiqhda teranlik, tafakkurda ulkan martabaga erishdi. Maorif, axloq, huquq va vatanparvarlik borasida o‘rnak olgan ustozlaridan ba’zilari quyidagilar: Ta’lim: Ahmad Ibrohim (1955- yilda vafot etgan); Huquq: Muhammad Ahmad Faras as-Sanhuri (vaf. 1977); Axloq: Muhammad Atif Barakat (vaf. 1924); Vatanparvarlik: Abdulvahhab Azzam (vaf. 1959); Adabiyot: Ahmad Amin (vaf. 1954); Fiqh: Ali Muhammad al-Hafif (vaf. 1978) va Abdulvahhab Hallaf (vaf. 1956); Notiqlik: Muhammad Ahmad az-Zawahiri (vaf. 1944), Abdulhamit Hasan (vaf. 1976) va S’ad b. Ibrohim Zaglul (vaf. 1927).

Muhammad Abu Zahra Axloqiy, siyosiy, adabiy, fikriy va boshqa ko‘plab sohalarda, ayniqsa bilim va jasoratda o‘z davrining taniqli olimlaridan biri sanalgan.

Uning ma’rifiy va g‘oyaviy dunyoqarashlaridan bahramand bo‘lgan turli sohalarda ko‘plab shogirdlari bor. Uning g‘oyalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va

⁷ Ebû Zehre, Zehretü’t-tefâsîr, Dâru'l-Fikri'l-Arabî, Kahire 2002, I, 10-11; X, 5482

kitoblaridan foydalanib, o‘zlashtirishga, tatbiq etishga va tarqatishga harakat qilgan ba’zi shogirdlari quyidagilardir: Tafsir ilmi: Ahmad Sayyid al-Kumiy; Islom tarixida: Muhammad at-Toyyib an-Najjor (vaf. 1991); Huquq: Abdulaziz Muso Amir; Fiqh: Muhammad G‘azali (vaf. 1996), Sayyid Kutup (vaf. 1966), Yusuf b. Abdillah al-Kardavi, Zakariya al-Barri, Salah Abu Ismoil, Vahba Zuhayli va Ahmad Fathi Surur.

Adabiyotlar:

1. Abdü'l-Müiz Abdülhamid el-Cezzar, “Min a'lâmi'l-Ezher: Muhammed Ebû Zehre”, Mecelletü'l-Ezher, Kahire 1984, c. LVI, sayı. 8, s.1266-1273; Ahmed Fuat Paşa, Mevsûatü a'lâmi'l-fikri'l-İslâmî: Muhammed Ebû Zehre, Kahire 1984, s. 901; Hayreddin Zirikli, el-A'lâm: Kâmûsu terâcim, Dâru'l-İlm li'l-Melayin , Beyrut 1996, VI, 25-26
2. Muhammed Osman Şübeyr, Muhammed Ebû Zehre, İmâmü'l-fukahâ'i'l-muâsırîn ve'l-müdâfiu'l-cerîu an-hakâiki'd-dîn, Dâru'l-Kalem,Dimeşk 2006, s. 56-80; Saffet Köse, “Muhammed Ebû Zehre”, DÎA,TDV, İstanbul 2005, XXX, 480-481
3. Ebû Zehre, La Conception de la guerre dans l'Islam (Son Barış Çağrısı), Cemal Aydin (çev.), Şüle Yayınları, İstanbul 1998, s. 1
4. Nasır Mahmud Vehdan, Ebû Zehre: Âlimen İslâmiyyen, hayatuhû ve menhecuhû fî buhûsihî ve kütübîhî,Şirketi'n-Nas li't-Tibaa, Kahire 1996, s. 11, 34
5. Ebû Bekir Abdürrezzâk, Ebû Zehre: İmâmu asrihî, hayâtühû ve eseruhü'l-ilmiyyü, Dâru'l-İ'tisâm, Kahire 1985, s. 25-30.